

**OILA — BAXT QO'RG'ONI: MUSTAHKAM OILANING
JAMIYATDAGI O'RNI VA AHAMIYATI**

Mamatova Sevara O'roqboyevna

Jizzax viloyati Baxmal tuman

1-son politexnikumi

Tarbiya fani o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu tezisda oilaning jamiyatdagi o'rne, uning inson hayotidagi ahamiyati, mustahkam oila asoslari va zamonaviy davrda oilaning duch kelayotgan muammolari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, mustahkam oilaviy munosabatlarni shakllantirishda tarbiya, madaniyat, diniy qadriyatlar va davlat siyosatining roli tahlil qilinadi. Ijtimoiy-pedagogik va axloqiy nuqtai nazardan yondashgan holda yozilgan.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, mustahkam oila, qadriyat, tarbiya, axloq, jamiyat poydevori, baxtli oila, farovonlik.

Har bir inson hayotida oila eng muhim o'rin tutadi. Oilada bizga eng yaqin va mehribon insonlar bor bo'lib, biz ularga mehr qo'yamiz, hayotdagi qanday bo'lishidan qat'i nazar, ularni o'z holicha qabul qilamiz. Oila tushunchasi inson shaxsiyati, xatti-harakati va hayotdagi pozitsiyasiga bevosita ta'sir etadi. Shu sababli ko'plab tadqiqotchilar va olimlar oilaviy hayotni chuqur o'rganib kelmoqda.

Sotsiologiyada oila va unga oid munosabatlar ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda asosiy mavzulardan biridir. Nikoh va oilaviy muammolarni o'rganish sotsiologiya fanining yetakchi sohalaridan hisoblanadi. Tarixiy taraqqiyot davomida nikohning mohiyati sezilarli darajada o'zgargan. Eski nikoh tizimining barham topishi yangi turdagi oilaviy munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Nikohning erkinligi va ajralish jarayonining soddalashuvi tufayli er-xotinlar o'zaro hamda farzandlari oldidagi javobgarliklarini ba'zida his qilmasdan harakat qilmoqda.



Sovet davrida oilaviy munosabatlarga yondashuv tubdan o'zgargan edi. Bu davrda farzandlar juda og'ir sharoitlarda ulg'aygan, ota-onalar bolalarga yetarli vaqt ajrata olmagan. Shunga qaramay, har bir oila a'zosiga aniq vazifalar yuklangan bo'lib, ular so'zsiz bajarilgan. Aksariyat hollarda oilalar moliyaviy jihatdan qiynalgan, ammo baribir ko'p bolali oilalar bo'lgan. Ajablanarlisi, bunday og'ir hayot sharoitiga qaramasdan, ijtimoiy inqirozli yoki mojaroli oilalar kam uchragan.

Oila har bir jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, u inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy institutlardan biridir. Har bir insonning shaxs sifatida shakllanishida oila birinchi maktab hisoblanadi. Mustahkam oila jamiyatning barqarorligi, taraqqiyoti va farovonligi uchun muhim omildir. Insoniyat tarixida oila doimiy e'tiborda bo'lib kelgan va u ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismi sifatida shakllangan. Bugungi globallashuv davrida esa oilaning mustahkamligi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila - qon-qarindoshlik, nikoh, mehr-oqibat va o'zaro mas'uliyat asosida shakllangan ijtimoiy birlikdir. Sotsiologik nuqtai nazardan, oila jamiyatning kichik ijtimoiy guruhi bo'lib, u ma'lum ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Oilaning asosiy vazifalaridan biri - avlodlar davomiyligini ta'minlash, tarbiya, axloqiy qadriyatlarni singdirishdir.

Oila qadimdan ijtimoiy institut sifatida shakllanib, inson hayotidagi muhim bosqichlarni - tug'ilish, tarbiya, ijtimoiylashuv va psixologik rivojlanishni o'z ichiga olgan. U xalqning urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari va axloqiy qadriyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyat oilalardan tashkil topadi. Agar oilalar mustahkam bo'lsa, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, tinchlik va taraqqiyot bo'ladi. Aksincha, oiladagi inqirozlar jamiyatda axloqiy tanazzul va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Oilada har kim o'z vazifasini anglab, mas'uliyat bilan yondashishi, o'zaro ishonch asosida yashashi muhimdir. Bu ishonch farzandlar tarbiyasida ham katta rol o'ynaydi. Ota-onaning bir yoqadan bosh chiqarib farzand tarbiyasiga yondashishi, ular orasida kelishmovchilik bo'lmasligi sog'lom va barkamol avlod shakllanishini ta'minlaydi. Moddiy ahvol bilan bir qatorda, ruhiy-ma'naviy muhit ham muhim. Oilada muvozanat saqlansa, u ijtimoiy bosimlarga bardosh bera oladi.



Oila farzandning birinchi ijtimoiy muhitidir. Unda olgan tarbiya uning xarakteri, hayotga munosabati va ijtimoiy faoliyatini belgilaydi. Ya'ni, halollik, vijdon, mehnatsevarlik, sabr-toqat kabi qadriyatlar aynan oilada shakllanadi. Bu qadriyatlar farzandning kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyatga ega.

Farzandlar ota-onaning harakatlariga, gap-so'zlariga taqlid qiladi. Ular uchun ota-ona eng yaqin va ishonchli tarbiyachidir. Shuningdek, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar oilada saqlanadi va yangi avlodga o'tadi. Bu orqali milliy o'zlik saqlanadi. Din insonni axloqiy va ma'naviy yetuklikka chaqiradi. Oila - diniy tarbiyaning birinchi o'chog'idir. Qur'on oyatlari, hadislar orqali oilada sabr, kechirimlilik, halollik singari xususiyatlar singdiriladi.

Oila farzandga vatan, xalq va tarixga hurmat ruhini singdiradi. Vatanparvarlik oilada boshlanadi. O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Ko'p farzandli oilalarga yordam, ijtimoiy nafaqalar, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlari oilaning mustahkam bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Har qanday taraqqiyot asosi - sog'lom, bilimli, ma'naviy yetuk inson. Bunday inson esa mustahkam oilada voyaga yetadi. Millat kelajagi farzandlar tarbiyasiga bog'liq. Barkamol avlod esa faqat sog'lom, mehribon va ma'naviy boy oilada tarbiyalanadi.

Shuningdek, islomiy ma'naviyatda oila muqaddas dargoh sifatida e'tirof etilib, uni halollik, poklik va o'zaro sadoqat tamoyillariga asoslanib barpo etish ta'kidlab kelinadi. Dinimizda er va xotin o'rtasidagi fidoyilik, hurmat va mas'uliyat asosiy qadriyat sifatida qoraladi.

Shu boisdan ham jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi uchun avvalo ma'naviy poklik va oila institutining barqarorligi ta'minlanishi kerak. Halol va mustahkam oila qurmasdan turib, jamiyatda to'laqonli taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Oila — bu shunchaki shaxsiy hayot emas, balki jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo'g'inidir. Shuning uchun ham balog'atga yetgan har bir yigit va qiz uchun oila qurish nafaqat tabiiy ehtiyoj, balki ma'naviy va ijtimoiy mas'uliyatdir. Ular



o‘zaro rozilik va vafo asosida birlikda yashab, jamiyatga foydali avlod tarbiyalashlari kerak.

Oilani mustahkamlovchi eng muhim omillardan biri bu oila a‘zolari, xususan, er-xotinning o‘zaro tushunishi, mehr-shafqat ko‘rsata olishi va hayotiy mas‘uliyatni teng taqsimlashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, ayol kishining oiladagi o‘rni beqiyosdir. Uy-ro‘zg‘or, farzand tarbiyasi, oilaviy muhit yaratishda ayolning roli markaziy hisoblanadi. Oila ichidagi aksariyat tashvish va mashaqqatlar ayol zimmasiga tushadi, shuning uchun uning sabr-toqati, mehnatkashligi, muloyimligi va donoligi oilaning barqarorligiga asosiy kafolatdir.¹

Xulosa qilib aytganda, oila jamiyatning eng muhim negizi bo‘lib, uning barqarorligi har bir shaxsning baxtli hayot kechirishi va sog‘lom jamiyat shakllanishining kafolatidir. Har birimiz oila qadriyatlarini asrab-avaylab, mustahkam oilaviy munosabatlar asosida yashasak, jamiyatimizda tinchlik, totuvlik va farovonlik qaror topadi. Oila madaniyatini oshirish, tarbiyaviy ahamiyatini chuqur anglash, har bir fuqaroning ijtimoiy mas‘uliyatiga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
2. G‘aybullaev M. Oilaviy qadriyatlar va tarbiya masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Qur‘oni Karim va Hadislar asosida oilaviy hayot: tanlangan oyatlar va hadislar izohi. – Toshkent: Imom Buxoriy nashriyoti, 2020.
4. Abdullaeva S. Oila sotsiologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2021.

¹ Abdullaeva S. Oila sotsiologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2021.